Abstract: As a result of the economic reforms implemented in recent years, tourism in the country is recognized as a key factor in diversifying the national economy, accelerating regional development, creating new jobs, enhancing the country's investment attractiveness, and improving the living standards of the rural population. In this article, the authors provide a detailed analysis of the internal and external potentials for introducing agrotourism in agriculture, opportunities to increase its effectiveness, and its future prospects. The study presents the development opportunities and outlook for agrotourism through available statistical data, diagrams, and tables.

Key words: agrotourism in agriculture, economic efficiency, international experience.

Аннотация: В результате экономических реформ, проводимых в последние годы, туризм в стране признается одним из ключевых факторов диверсификации национальной экономики, ускоренного развития регионов, создания новых рабочих мест, повышения инвестиционной привлекательности страны и улучшения уровня жизни сельского населения. В данной статье авторы подробно анализируют внутренние и внешние потенциалы внедрения агротуризма в сельском хозяйстве, возможности повышения эффективности агротуризма, а также перспективы его развития. В исследовании с использованием имеющихся статистических данных, диаграмм и таблиц всесторонне освещаются возможности и перспективы развития агротуризма.

Ключевые слова: агротуризм в сельском хозяйстве, экономическая эффективность, международный опыт.

KIRISH

Dunyo miqyosida agroturizm qishloqlar rivojining samarali vositasi ekanligi isbotlangan. U kichik fermer xo'jaliklariga qo'shimcha daromad keltirib, qishloq infratuzilmasini yaxshilaydi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Aholisining deyarli yarmi qishloq joylarida istiqomat qiluvchi agrar-industrial davlat bo'lgan O'zbekistonda agroturizm qishloqlar rivojlanishining asosiy omili bo'lishi mumkin.

“Agroturizm – bu aholi uchun qo'shimcha dam olish maskanlarining shahar markazlaridan tashqari hududlarda, xususan, tumanlarda tashkil etilishidir. Agroturizmdan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlarning yurtimizda ko'proq va mazmunli vaqt o'tkazishini ta'minlash, shu bilan birga, mahalliy aholining maroqli hordiq chiqarishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishdir.”

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi, aholining katta qismi qishloq joylarda yashaydi. Statistika agentligining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonning 49% doimiy aholisi, ya'ni 18 407 400 kishi (2025-yil 1-yanvar holatiga) qishloq joylarda istiqomat qilmoqda. Tabiiyki, ular



asosan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalari bilan emas, balki ko'proq qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va fermer xo'jaliklarida faoliyat yuritish bilan shug'ullanadi. Ammo hech kimga sir emaski, qishloqdagi bir qator ishlar mavsumiy hisoblanadi va mavsum tugagach, ko'pchilik aholi ishsiz qoladi.

So'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida agroturizm yangi yo'nalish sifatida e'tibor qozonmoqda. Bu yo'nalishda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-yilda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"ning o'rni beqiyosdir. Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizmni birlashtirgan holda qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Lekin bu soha biz uchun yangi yo'nalish bo'lganligi sababli, uni amaliyotga joriy etishdan oldin mavjud imkoniyatlarni chuqur o'rganib, tahlil qilish lozim. Ushbu maqolada O'zbekiston fermer xo'jaliklarida agroturizmni joriy etishning ichki va tashqi salohiyatlari, mavjud imkoniyatlar va istiqbollar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Turizm, ayniqsa agroturizmni rivojlantirish va uni mamlakat hududida joriy qilish bo'yicha xorijiy davlatlar olimlaridan Pham Truong Hoang, Nunkoo R., Ramkissoo H., Long P.E., MDH davlatlari olimlaridan A.Yu. Aleksandrova, I.I. Pirojnik, A.I. Altuxova, A.B. Zdorov ilmiy ishlar qilishgan. Hozirgi kunda Respublikamizda ham bir qator iqtisodchi olimlar ushbu yo'nalishda faoliyat yuritmoqdalar. Ular jumlasiga Khalimova N.J., Djafarova N.A., Hamroev H.R., A. Yusupov, D. Baratova larni keltirishimiz mumkin. Xorij bilan hamkorlikda esa Soliyev A.S., Usmonov M.R., Francesco Pagliacci, Edi Defrancesco kabi olimlarning ilmiy ishlarini alohida e'tirof etish lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil usullaridan qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy ma'lumotlari asosida agroturizmning rivojlanish holati va imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning agroturizm sohasidagi tajribalari tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fermer xo'jaliklari uchun agroturizm yangi daromad manbai bo'lishi mumkin. Biroq, infratuzilma va xizmatlar sifati yetarlicha rivojlanmagan. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Fermer xo'jaliklarida mehmon uylari va ekologik turizm obyektlarini yaratish.

Hukumat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish.

Agroturistik xizmatlarni mahalliy va xorijiy bozorlarga targ'ib qilish.

O'zbekiston fermer xo'jaliklarining agroturizmni joriy etishdagi potensial imkoniyatlari ichki va tashqi salohiyatlarga bo'linadi. Quyida ushbu salohiyatlar statistik va raqamli ma'lumotlar bilan batafsil yoritiladi.

Agroturizmni rivojlantirishning ichki salohiyatlari quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Fermer xo'jaliklarining ko'p tarmoqliligi:

Fermer xo'jaliklari soni: Respublikamiz hududida 2023 yilda 88,8 mingta fermer xo'jaliklarining 2 553 ming ga yer maydoni, 9,7 mingta qishloq xo'jaligi tashkilotlarining 622,9 ming ga yer maydoni, 5 milliondan ortiq aholi tomorqalari hamda 753 mingta dehqon xo'jaliklarining 640,9 ming ga yer maydonlarida 202,7 trillion so'mlik dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilga nisbatan 4,2 foizga o'sish kuzatilgan. 2023-yilda 47 452 ta fermer donli ekinlar, 29 192 ta fermer sabzavot, 20 271 ta fermer kartoshka, 14 054 ta fermer poliz, 25 794 ta fermer mevalar va 11 042 ta fermer uzum yetishtirgan.

Faoliyat yo'nalishlari:

Fermer xo'jaliklari 10 dan ortiq yo'nalishda, jumladan, chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilik, asalarichilik kabi sohalarda faoliyat olib boradi. "...yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko'p go'sht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgan."

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi:

Shu bilan birga xo'jalik yuritishning yangi shakli bo'lgan agroklastarlarni tashkil etilishi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning samarasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda 2019-2023-yillarda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi¹

Mahsulot turi	O'lchov birligi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarishi	
							Mut-loq	Nisbiy, %
Don	ming t.	7437,8	7636,0	7634,6	7990,5	8453,4	1015,6	113,6
Paxta xom ashyosi	ming t.	2691,7	3064,0	3372,9	3510,0	3800,0	1108,3	141,2
Kartoshka	ming t.	3089,7	3143,8	3285,6	3443,2	3574,1	484,4	115,7
Sabzavot	ming t.	10215,1	10020,2	10850,2	11162,9	11553,7	1338,6	113,9
Meva va rezavorlar	ming t.	2752,7	2812,6	2852,6	2999,3	3121,7	369,0	113,4
Uzum	ming t.	1 603,3	1 606,9	1 695,3	1760,6	1731,7	128,4	108,0
Go'sht (tirik vazn)	ming t.	2473,6	2519,6	2635,1	2725,9	2833,2	359,6	114,6
Sut	ming t.	10714,3	10976,9	11274,2	11627,2	11968,7	1254,4	111,7
Tuxum	mln.dona	7 771,2	7 781,2	7 788,4	8129,2	8487,4	716,2	109,2
Pilla	tonna	21 374,1	20 941,9	22 769,9	24300	25886	4511,9	121,1

Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan barcha turdagi asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish oshganini ko'ramiz, ayniqsa, paxta (41,2%) va pilla (21,1%) yetishtirish sezilarli darajada oshgan.

Agroklastlar va kooperatsiyalar:

Bugungi kunda agroklastlar qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarida, jumladan, to'qimachilik, kasanachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, pillachilik, resurs tejankor texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish kabi yo'nalishlarda jonbozlik ko'rsatmoqda. Ayni paytda yurtimizda 660 dan ortiq agroklastlar faoliyat yuritib, paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotining 60 foizidan ortig'i aynan klaster usulida yetishtirilmoqda.

"Agarar-tadbirkorlik" sohasida joriy yilda 55 ta agro-sanoat klasterlari faoliyati tashkil etilib, jami klasterlar soni 669 taga yetkazildi. Bugungi kunda:

Paxta-to'qimachilik klasterlari – 153 ta,

G'allachilik klasterlari – 126 ta,

Meva-sabzavotchilik – 136 ta,

Sholichilik – 41 ta,

Dorivorchilik – 8 ta,

Chorvachilik – 34 ta,

Qorako'chilik – 46 ta,

Parrandachilik – 11 ta,

Baliqchilik – 38 ta,

Pillachilik – 76 tani tashkil etmoqda.

Klasterlar tomonidan soha uchun 510 mln. dollar investitsiya jalb qilinib:

Paxtani qayta ishlash 65 foizga oshdi (2022-yilga nisbatan 832 ming tonna yoki 123%),

G'allani qayta ishlash 38 foizga (105 tonna yoki 102%),

Meva-sabzavotni qayta ishlash 92 foizga (110 ming tonna yoki 111%) yetkazilgan.

Shuningdek:

Suv tejoychi texnologiyalar – 34,7 ming gektarga o'rnatilib, jami 161,6 ming gektar yer maydonlari;

Lazerli tekislangan maydonlar – 45 ming gektar bo'lib, jami 237 ming gektarga yetkazilgan.

Qishloq xo'jaligi texnikalari – 1,1 mingdan ortiq xarid qilinib, texnika bilan ta'minlanish darajasi 92 foizni tashkil etgan.

Klasterlar tomonidan sohaga ilg'or ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy agrotexnik tadbirlarning joriy qilinishi natijasida o'rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Joriy yilda Yangi O'zbekiston tarixida ilk marotaba 3,7 million tonna paxta xom-ashyosi yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida shakllangan agroklastlarning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarining takomillashtirilib borilishi keyingi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining tahlili, o'sish sur'atlari yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda (2-jadval).

1 www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-jadval. Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 2019-2023 yillarda o'sish sur'atlari² (o'tgan yilga nisbatan foizda).

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Jami - barcha toifadagi xo'jaliklar	103,3	102,7	103,9	103,6	104,1
shu jumladan: fermer xo'jaliklari	110,5	105,6	106,2	105,0	107,8
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	99,2	100,5	101,5	101,1	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	140,4	121,5	126,2	126,7	126,4
Dehqonchilik mahsulotlari – barcha toifadagi xo'jaliklar	104,8	103,2	104,3	103,8	104,9
shu jumladan: fermer xo'jaliklari	110,2	106,2	105,5	103,6	107,8
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	97,6	96,4	99,5	100,6	98,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	159,6	147,5	129,1	123,9	127,9
Chorvachilik mahsulotlari - barcha toifadagi xo'jaliklar	101,6	102,1	103,5	103,3	103,3
shu jumladan: fermer xo'jaliklari	113,8	99,4	113,5	118,3	107,2
dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	100,2	102,7	102,4	101,3	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	123,5	91,5	121,0	132,1	124,0

Yuqorida keltirilgan ichki imkoniyatlardan farqli ravishda agroturizmni rivojlantirishning tashqi salohiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Turizm sohasidagi islohotlar:

Agroturizmning ahamiyati: Agroturizm qishloq joylarining rivojlanishiga, kichik fermer xo'jaliklariga qo'shimcha daromad manbai yaratishga, qishloq infratuzilmasini yaxshilashga va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Mavjud agroturizm obyektlari tajribasi:

“Mehrigiyo” agroturizm klasteri – Farg'ona viloyatidagi ushbu klaster 1992-yildan buyon faoliyat yuritib, lavanda plantatsiyalari, issiqxonalar va tabiiy shifobaxsh mahsulotlari bilan mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etmoqda. Mavsum davrida kuniga o'rtacha 1 000 nafar sayyoh tashrif buyuradi.

- Xalqaro hamkorlik va xorijiy investitsiyalar:

Xorijiy investitsiyalar hajmi: 2022-yilda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 26 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Agroklastlar rivoji: Buxoro viloyatida tashkil etilgan “Buxoro Varnet” issiqxona klasteriga 120 million dollardan ortiq xorijiy sarmoya kiritildi. Ushbu klaster 113 gektar maydonda joylashgan bo'lib, yiliga 33,8 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega va 2 mingga yaqin ish o'ri yaratish imkonini beradi.

- Xorijiy sayyohlar oqimi va turizm infratuzilmasi:

Sayyohlar sonining o'sishi: 2017-yilda O'zbekistonga 2,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 5,2 millionga yetdi, ya'ni 1,9 barobarga oshdi. 2023-yilda esa xorijiy sayyohlar soni 6,6 million nafarga yetib, 2022-yilga nisbatan 26,9% ga oshdi.

Turizm xizmatlari eksporti: 2017-yilda turizm xizmatlari eksporti 546,9 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 1,041 milliard AQSh dollariga yetdi.

Mehmonxonalar soni: 2017-yilda O'zbekistonda 767 ta joylashtirish vositasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 5 mingga oshdi.

- Davlat siyosati va islohotlar:

Viza rejimini soddalashtirish: 2018-yildan boshlab O'zbekiston 93 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibini joriy etdi, bu esa xorijiy sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qildi.

Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi: 2019-yilda qabul qilingan “2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi” turizm infratuzilmasini rivojlantirish, transport logistika va xizmatlar sifatini oshirish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. So'nggi yillarda fermer xo'jaliklari ko'p tarmoqli modelga o'tib, an'anaviy dehqonchilik bilan birga agroturizmni rivojlantirishga

2 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



yo'naltirilmoqda. Buning natijasida qishloq joylarda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston fermer xo'jaliklarining agroturizmni rivojlantirishdagi salohiyati ichki va tashqi omillar asosida tahlil qilinadi. Fermer xo'jaliklari agroturizmni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda mamlakatda 160 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda, ulardan 75 mingdan ortig'i ko'p tarmoqli bo'lib, bu so'nggi ikki yilda 45% ga oshgan. Bu esa shuni anglatadiki, fermerlar turizm sohasida ham o'z bizneslarini kengaytirish uchun yetarli resurslarga ega. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Agroturizm tajribalarida mahalliy taomlar tayyorlash, an'anaviy dehqonchilik va bog'dorchilik bilan tanishtirish kabi xizmatlar aynan ushbu resurslarga asoslanadi. Fermer xo'jaliklarida chorvachilikning keng rivojlanayotgani ham muhim omillardan biri. Bu esa etno-turizm va qishloq hayotini aks ettiruvchi tadbirlarga bo'lgan qiziqishni oshirish imkonini beradi. Xorijlik sayyohlar uchun o'zbekona chorvachilik madaniyatini o'z ko'zi bilan ko'rish va tajriba qilish katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

Shuningdek, agroklasterning kengayishi ham agroturizmga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Klaster tizimi fermerlar uchun agroturistik xizmatlarni joriy qilish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, klasterlar negizida joylashtirilgan fermer xo'jaliklari agroturizmni yo'lga qo'yishda katta ustunlikka ega bo'lishi mumkin. O'zbekistonning tashqi salohiyati ham agroturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. So'nggi yillarda xorijiy investitsiyalar va xalqaro hamkorlik sezilarli darajada oshdi. Xorijiy sayyohlar oqimi yil sayin ortib bormoqda. 2017-yilda O'zbekistonga 2,7 million sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 6,6 million nafarga yetdi. Sayyohlik xizmatlari eksporti ham sezilarli darajada o'sib, 2017-yilda 546,9 million AQSh dollaridan 2018-yilda 1 milliard dollardan oshgan. Bu esa xorijiy sayyohlar uchun yangi turistik yo'nalishlar yaratish zarurligini ko'rsatadi. Agroturizm yo'nalishlari aynan shunday yangi xizmatlar qatoriga kiradi va O'zbekiston uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lishi mumkin. Lekin agroturizm uchun maxsus dizaynlangan mehmonxona va eko-loyihalar hali ham yetarlicha emas. Agar fermer xo'jaliklari mehmon uylari yoki ekologik dam olish maskanlarini yaratishsa, bu turizm sektorini yanada rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.

Davlat siyosati ham agroturizmning rivojlanishiga yordam bermoqda. 2019-yilda qabul qilingan "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" esa turizm sohasida amalga oshiriladigan islohotlarni yanada tezlashtirdi. Shuningdek, agroturizm loyihalarini qo'llab-quvvatlash ham davlat dasturlarida aks etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning agroturizm bo'yicha salohiyati juda yuqori bo'lib, ichki va tashqi omillar bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ichki salohiyatni kuchaytirish uchun fermer xo'jaliklarini modernizatsiya qilish, agroklasterning imkoniyatlaridan samarali foydalanish va qishloq turizmini rivojlantirish lozim. Tashqi salohiyatdan foydalanish uchun esa xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish va davlat tomonidan imtiyozlar yaratish zarur.

Agroturizmning rivojlanishi nafaqat qishloq hududlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, balki mahalliy fermerlar uchun yangi daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi. O'zbekistonning boy tabiati, ekotizimlari va qishloq xo'jaligi madaniyati agroturizm orqali xorijiy sayyohlar uchun jozibador yo'nalishga aylanishi mumkin. Shu bois, mazkur salohiyatdan to'laonli foydalanish kelajakda mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirish bilan birga, qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratish va yashash sharoitlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4143188>
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/7755>
3. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. - М., КноРус, 2016. -458 с.
4. Altuxova A.I. Management of service operations: text, cases, and readings, Business & Economics - 734 p.
5. Barotova D. O'zbekistonda "Turistik qishloq", "Turistik mahalla", "Turistik ovul"larni rivojlantirish mexanizmlari. "O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 2020 yil 11-12 dekabr. 124-126 b.
6. Ergashboyev, M. J. o'g'li., & Eshmuradov, U. T. (2025). Agroturizm – qishloq xo'jaligida yangi daromadlar kaliti. international sciences, education and new learning technologies, 1(12), 36–41. <https://doi.org/10.5281/zenodo>
7. Ergashboyev, M. J., Eshmuradov, U. T. (2024). O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari: International sciences, education and new learning technologies, 1(11), 19–26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14518213>
8. Pham Truong Hoang. Cooperation between tourism business and local community in developing responsible tourism at tam coc - Bich dong tourist area, New tourism: local to global initiatives, International conference proceedings. 2018. pp. – 36-51.



9. Nunkoo, R., & Ramkissoon, H. (2011a), Developing a community support model for tourism, *Annals of Tourism Research*, 38(3), 964-988.
10. Long, P.E. (1997), Researching Tourism Partnership Organizations: From Practice to Theory to Methodology, In *Quality Management in Urban Tourism*, P.E. Murphy, ed., pp. 235-251.
11. Pirojnik I.I.. Urban tourism research developing an Agenda, University of Technology Minsk, Belarus, *Annals of Tourism Research*, Vol. 35, No. 4, pp. 1032-1052.
12. Zdorov A.B. An Applied Service Marketing Theory, *European Journal of Marketing*, Vol. 16 Issue: 7, pp. 30-41.
13. Khalimova N.J, Djafarova N.A. Specificity of professional development in tourism industry. "O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 2020 yil 11-12 dekabr. 22-23 b.
14. Hamroev H.R. Mamlakatlarning turistik imkoniyatlarini aniqlash ko'rsatkichlari tahlili. "O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: Barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 2020 yil 11-12 dekabr. 24-28 b.
15. Солиев А.С., Усмонов М.Р.–Туризм географияси–(Самарқанд вилояти мисолида) Монография. - Самарқанд: СамДУ, 2005. - 131 б.
16. Eshmuradov, U. B. T. (2024). O 'ZBEKSTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI.–INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES,–1(11), 19-26.
17. Eshmuradov, U. B. T. (2024). AGROTURIZM–QISHLOQ XO 'JALIGIDA YANGI DAROMADLAR KALITI.–INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES,–1(12), 36-41.
18. Minghojiddin, E., & Eshmuradov, U. (2025). Agritourism Development In Italy And New Zealand: A Comparative Analysis And Implications For Uzbekistan.–American Journal of Advanced Scientific Research,–2(9), 154-160.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/?preview=1&>
20. <https://www.uzdon.uz/uz/news/info/company/704>
21. www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture/statistik/ma'lumotlari/asosida/muallif/tomonidan/tayyorlandi
22. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. – B.22.
23. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. <https://www.agro.uz/charts>
24. https://www.researchgate.net/publication/378577233_Toshkent_viloyatida_agroturizm_obyektlarini_rivojlantirish_va_kadrlar_salohiyatini_oshirish_istiqbollari
25. <https://journals.proindex.uz/index.php/JRITIL/article/download/557>
26. <https://kun.uz/news/2023/01/31/sayyohlar-soni-oshmoqda-bu-ozbekiston-uchun-qanchalik-foyda>
27. <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/2112>
28. <https://kun.uz/news/2019/01/30/ozbekistonda-turizm-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-sarhisobi-va-yaqin-kelajak-uchun-prognozlar>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
